

**“NARPAY TUMANI TUPROQLARI: HOZIRGI MELIORATIV HOLATI VA
KARTOGRAFIK TAHLILI”**

Xudayorova U S

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston,
xudayorovaumida3@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Narpay tumanidagi sho'rlangan tuproqlarning meliorativ holati o'rganildi. Tadqiqotda dala kuzatuvlari, laboratoriya tahlillari hamda kartografik usullar qo'llanildi. Natijada sho'rlanish darajasining asosiy sabablari aniqlanib, ularni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.*


Kalit so'zlari: *Narpay tumani, Zarafshon vodiysi, tuproq, meliorativ holat, sho'rlanish, tuproq turlari, qumloq tuproqlar, o'tloq-bo'z tuproqlar, yer osti suvlari, suv minerallanishi, xaritalash, kartografik tahlil, sug'oriladigan yerlar, unumdorlik, dehqonchilik, melioratsiya choralari.*

KIRISH

Bugungi kunda tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash O'zbekiston qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Aholi sonining o'sishi va dehqonchilik maydonlarining kengayishi natijasida yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi dolzarb tus olmoqda.

Narpay tumanida yer osti suvlarining yuqori joylashuvi va suv rejimining o'zgarishi natijasida sho'rlanish jarayonlari kuchaygan. Shu bois, bu hududdagi tuproqlarning holatini muntazam o'rganish zarurdir. Tumanda tuproqlarning asosiy qismi sug'oriladigan bo'z tuproqlardan iborat bo'lib, ayrim joylarda sho'rlangan va tog' etagi qiya tekisliklarida och bo'z tuproqlar tarqalgan.

Narpay tumanidagi tuproqlarning sho'rlanish darajasining oshishiga va o'zgarishiga asosiy sabab -yer osti suvlarining yer yuzasiga nisbatan yaqin joylashuvi hamda inson faoliyati ta'sirida tuproq meliorativ holatining o'zgarishidir. Shu omillarni chuqur tahlil qilish va ularning oqibatlarini baholash ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.



1-rasm. Narpay tumani tabiiy xaritasi (muallif tomonidan tuzilgan)

Tadqiqotning maqsadi:

Narpay tumanidagi tuproqlarning meliorativ holatini o'rganish, sho'rlanish darajasi va sabablarini aniqlash, shuningdek, ularning hududiy taqsimlanishini xarita asosida tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari:

1. Narpay tumanining tabiiy sharoitlari va geologik tuzilishini tahlil qilish.
2. Tumandagi tuproqlarning turlari, sho'rlanish darajalari va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash.
3. Tuproq meliorativ holatiga ta'sir etuvchi tabiiy va antropogen omillarni baholash.
4. Yer osti suvlarining sathi va kimyoviy tarkibining tuproq sho'rlanishiga ta'sirini aniqlash.
5. O'rganilgan natijalar asosida tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.
6. Tadqiqot natijalarini xaritada aks ettirish orqali tuman tuproqlarining sho'rlanish holatini vizual tahlil qilish.

Natijalar va ularning muhokamasi. Zarafshon vodiysidagi tuproq hosil qiluvchi jinslar asosan turli litogenezli to'rtlamchi davr yotqiziqlari. Narpay tumani Zarafshon I va II terrasada joylashgan. Bu terrasalarda, cho'kindilarning tekislik qalinligi 60-150 m. Tumaning asosiy suv manbai Narpay kanali Zarafshon vodiysidagi qadimiy va yirik kanallardan biri. Qoradaryo (Zarafshon tarmog'i)dan to'g'onsiz suv oladi. Suv o'tkazish imkoniyati $70 \text{ m}^3/\text{s}$. Sug'orish maydoni 42,2 ming ga; o'rtacha chuqurligi 1-2 metr Samarqand viloyatining Narpay tumanida 18,6 ming ga, Paxtachi tumanida 17,9 ming ga, Kattaqo'rg'on tumanida 4 ming ga, undan quyiyoqda 1,7 ming ga yerlarni sugoradi.

Kanal daryoga parallel holda Zarafshon tizmasining g'arbiy tarmoklari etaklari bo'ylab o'tgan. 370 shoxobchasi bor[1].

Narpay tumanda bo'z tuproq zonasida sug'oriladigan tipik, och bo'z va o'tloqi tuproqlarida hamda quyi qismida muntazam yuvilib turuvchi cho'l zonasining sug'oriladigan o'tloq tuproqlarida sug'orma dehqonchilik rivojlangan. Havzaning paxta, beda, sholi, bug'doy, jo'xori, bog'dorchilik va uzum ekinlari. Yomg'irli dehqonchilik ham keng rivojlangan bo'lib, asosan okrugning sharqiy qismidagi tipik bo'z tuproqli tog' tog'li tekisliklarda joylashgan.

Tuman hududida asoasan elyuvilar, delyuviylar va toshli prolyuviylar ёткизикларидагидagi qumoqli va loyli, talqon tuproq teri toshli va dag'al toshloqli, bazi joylarda sho'rxoksimon, o'rtacha va kuchli yuvilgan (qo'riq-tashlandiq, bazi joylarda lalmi va shartli sug'oriladigan) tipik bo'z tuproqlar. Lyoss va lyossimon qumolardagi bazi joylarda kuchsiz sho'rlangan kuchsiz yuvilgan, o'rta va og'ir, bazi joylarida yengil qumoqli sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlar. Lyoss va lossimon qumolarda kuchsiz va o'rtacha yuvilgan, asosan o'rtacha va og'ir qumoqli, bazan toshloqli yuvilmagan lalmi tipik bo'z tuproqlar.

Narpay tumanida tuproqlar uning relyefiga, geologik jinslariga, iqlimiga, agroiklimiy sharoitlariga va yer osti suvlarining sathiga bog'liq holda joylashgan

Bundan ko'rinib turiptiki yer osti suvlari ham tuproqlarning tarkib topishida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun biz yer osti suvlarining sathiga qarab tuproqlarni ham 3 turga ya'ni avtomorf, gidromorf yarim gidromorf deb ajratamiz.

Yer osti suvlarining yaxshi chiqmasligi, uning yaqinlashishi va bug'lanish uchun intensiv sarflanishi tuproqlarda, ayniqsa daryoning quyi oqimida tuzning to'planishini oshiradi. Zarafshon va sho'rlangan tuproqlarning ko'p variantlari va sho'r botqoqlarning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Yer osti suvlarining chuqurligi, sho'rlanishi va kimyoviy tarkibi

1-jadval


№ kesish	Chuqurlik, sm	Minerallanish, g/l.							Sho'rlanish	
		Qattiq qoldiq	HCO3	Cl	SO4	Ca	Mg	Na	тип	daraja
Samarqand viloyati										
24	130	1,830	0,476	0,042	0,816	0,160	0,091	0,241	C	zaif
25	145	0,970	0,409	0,028	0,432	0,100	0,085	0,103	C	yangi
26	170	2,130	0,159	0,021	0,272	0,270	0,049	0,279	C	zaif
22	120	1,460	0,317	0,042	0,792	0,110	0,098	0,214	C	zaif
35	115	3,450	0,177	0,378	1,656	0,320	0,220	0,320	X-C	o'rtacha
39	135	4,270	0,329	0,406	2,184	0,270	0,354	0,453	X-C	o'rtacha

34	165	3,940	0,604	0,266	2,040	0,490	0,384	0,087	C	zaif
36	130	3,660	0,280	0,357	1,824	0,410	0,250	0,266	X-C	o'rtacha
12	120	1,260	0,128	0,084	0,648	0,130	0,079	0,114	C	zaif
17	160	3,440	0,323	0,200	1,824	0,130	0,140	0,748	C	o'rtacha
20	190	0,880	0,213	0,259	0,456	0,060	0,098	0,080	C	yangi

(Axmedov. A. U, Karimov. X. M, Artiqov.X. T, Parpiyev. G. T, Научное обозрение. Биологические науки., Rossiya. 2018)

Narpay tumani tuprog'i, birinchi navbatda, sho'r va qumloq tuproqlardan tashkil topgan. Bu tuproqlar odatda unumdor va qishloq xo'jaligiga yaroqli, suvni o'rtacha va yuqori darajada ushlab turish qobiliyatiga ega. Shu bilan birga, toshloq va gil tuproqli ba'zi joylar ham bor, ular ekinlarni yetishtirish uchun muammolar keltirib chiqaradi. Umuman olganda, Narpay tumanining tuprog'i sholi, bug'doy, sabzavot kabi ekinlar yetishtirish uchun qulay. Qolaversa, Narpay tumanidagi tuproqlar, ayniqsa, o'simliklarning o'sishi uchun zarur bo'lgan azot, fosfor va kaliy jihatidan yaxshi ozuqaviy moddalarga ega. Biroq, tumanning turli hududlarida tuproq unumdorligi va oziq moddalar darajasida ba'zi farqlar bo'lishi mumkin. Fermerlar uchun tuproqni muntazam ravishda sinab ko'rish va o'g'itlash usullarini mos ravishda o'zgartirish muhimdir. Umuman olganda, Narpay tumani qishloq xo'jaligi uchun qulay tuproq sharoitiga ega bo'lib, uni oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda muhim hududga aylantiradi.

Tuman hududida tuproq turlari hududiy jihatdan bir tekis taqsimlanmagan bo'lib, ularning tarkibi va meliorativ holati tabiiy sharoit, relyef, suv manbalari va sug'orish tizimining holatiga bog'liq holda farqlanadi. Quyidagi xaritada Narpay tumanining asosiy tuproq turlari, ularning joylashuvi va sho'rlanish darajasi aks ettirilgan. Xarita tuproqlarning tabiiy-geografik xususiyatlarini ko'rish va tahlil qilish imkonini beradi.



2-rasm. Narpay tumani tabiiy xaritasi (muallif tomonidan tuzilgan)

Narpay tumanida asosan sho'rlangan, qumloq, o'tloq-bo'z va tipik bo'z tuproqlar tarqalgan. Tumanning shimoliy va markaziy qismlarida unumdorlik darajasi nisbatan yuqori bo'lib, bu hududlar qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun eng qulay hisoblanadi. Janubiy hamda g'arbiy qismlarda esa sho'rlanish darajasi biroz yuqoriroq bo'lib, meliorativ tadbirlarni muntazam amalga oshirish talab etiladi. Xarita asosida tuproq turlarining joylashuvi va ularning meliorativ holati o'rtasidagi bog'liqlik aniq ko'rinadi.

Sho'rlangan yerlarni melioratsiyalashda uzluksiz ishlaydigan ochiq zovurlardan tashqari yana ko'pgina hollarda muvaqqat yordamchi sayoz zovurlardan ham foydalanish maqbul bo'ladi. Agar doimiy zovurlar oralig'idagi masofa keragidan ham katta bo'lsa, muvaqqat zovurlardan foydalanish katta samara beradi va bunda qo'shimcha zovurlardan foydalanishga ehtiyoj qolamydi.

Xulosa. Hozirgi kunda Narpay tumanida tuproq meliorativ holati boshqa tumanga chegaradosh bo'lgan hududlarga nisbatan yaxshi hisoblanadi. Tuproqshunos olimlar tomonidan tuproqni muntazam nazorat qilib borish ishlari muntazam ravshda olib borilmoqda. Narpay tumani tuproq eroziyasining oldini olish choralari ko'rish orqali o'zining unumdor tuproqlarini saqlab qolish va qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov A.U., Nomozov X.K., Xolboev B.E., Toshpo'latov S.I., Qoraxonov A.X. Tuproqshunoslik va agrokimyo. Darslik. -T.; " 2017
2. Axmedov. A. U, Karimov. X. M, Artiqov.X. T, Parpiyev. G. T, Научное обозрение. Биологические науки., Rossiya. 2018

3. Abdullayev.S.A., Namozov.X.Q Tuproq melioratsiyasi va gidrologiyasi Toshkent «Excellent Polygraphy» 2020 43 b.
4. Satarov.D.S, Xoliqulov.Sh, Nosirov.M, Eshmurodov.D Tuproqshunoslik va agrokimyo., 2009., 20 b.
5. Nomozov X.Q, Turdimetov Sh.M O'zbekiston tuproqlari va ularning evolutsiyasi., Toshkent., 2016,. 85 b.